OETIK MATNDA LINVOTEJAMKORLIKNING KOGNITIV ASPEKTLARI

Archabayeva Nargiza Nasimovna
O‘zbekiston Milliy universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada poetik matnda lingvotejamkorlik hodisasining kognitiv xususiyatlari tadqiq etiladi. Lingvotejamkorlikning poetik matnda namoyon bo‘lish shakllari konseptual metafora, metonimiya va antonomaziya kabi kognitiv mexanizmlar asosida tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek she’riyati namunalarida minimal lisoniy birliklar vositasida keng konseptual mazmunning shakllanishi yoritiladi. Tadqiqot natijalari poetik diskursda til iqtisodi nafaqat uslubiy vosita, balki inson tafakkurining konseptual modellarini aks ettiruvchi kognitiv hodisa ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Lingvotejamkorlik, kognitiv tilshunoslik, poetik matn, konseptual metafora, metonimiya, antonomaziya, implisit ma’no, konsept, milliy tafakkur, konseptualizatsiya, poetik obraz.*

KIRISH

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlarda inson omiliga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi tilga nisbatan yangicha yondoshuvlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Jahon tilshunosligida bugungi kunga kelib tilni inson tafakkuri, kommunikativ faoliyati hamda kognitiv jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganish tendensiyasi tobora rivojlanib bormoqda. Xususan, lingvistik iqtisod, ya’ni til biriklarining minimal shakl orqali maksimal semantik-pragmatik yuklama ifoda etishi masalasi zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Poetik matnda, oddiy kommunikativ nutqdan farqli ravishda maksimal ma’no minimal til vositalari orqali ifodalanadi. She’riyatda har bir so‘z, obraz yoki ramz katta konseptual maydonni faollashtiradi. Shu jihatdan lingvotejamkorlik poetik tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Poetik diskursda mazkur kodlashtirish jarayoni lingvotejamkorlik orqali yanada murakkab tus oladi. Chunki she’riy matnlarda til iqtisodi yordamida keng konseptual mazmun qatlamini shakllasntirish talab etiladi. Natijada esa o‘quvchi ma’noni dekodlash jarayonida faol kognitiv subyekt sifatida ishtirok etadi. Shuningdek, kognitiv metafora nazariyasi poeziyada lingvotejamkorlikni tushuntirishda muhim ahamiyatga ega, chunki she’riy matnda abstrakt tushunchalar ko‘pincha minimal verbal shakl orqali keng konseptual maydonni faollashtiradi.

Kognitiv tilshunoslikda metafora badiiy bezak emas, balki tafakkurning asosiy mexanizmlaridan biri sifatida qaraladi. Lakoff va Johnson nazariyasiga ko‘ra, inson abstrakt tushunchalarni konkret madaniy tajriba, milliy taffakkur orqali anglaydi.

Masalan, Erkin Vohidovning quyidagi misrasida:

Sendan farzandinga bog‘ qolsin, ey do‘st,
Bog‘ing Vatan degan nom olsun, ey do‘st.

(Erkin Vohidov, “Bir nihol” 2000)

Bog‘ real predmet bo‘lsa, Vatan abstrakt tushunchadir. Shoir Vatanni bog‘ obrazi orqali konseptuallashtiradi. Bu metafora parvarish qilish; mehnat qilish; avlodlarga meros qoldirish; o‘sish va rivojlanish kabi semalarni faollashtiradi.

Shoir "Vatan" haqida uzoq izoh berishdan ko‘ra birgina "bog‘" konsepti orqali Vatanning ijtimoiy, ma’naviy va tarixiy mohiyatini ixcham shaklda ifodalab, lingvotejamkorlikni yuzaga keltiradi. Metonimiya esa bir konsept doirasidagi yaqinlik va aloqadorlik munosabatlariga asoslanadi. Unda bir obyekt yoki hodisa boshqasi orqali ifodalanadi. Kognitiv nuqtai nazardan, metonimiya axborotni ixchamlashtirish va tezkor anglash imkonini ham beradi [1] . Shu sababli metonimiya poeziyada lingvotejamkorlikning muhim kognitiv-pragmatik vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Unda bir obraz yoki detal orqali murakkab emosional va konseptual mazmun implisit tarzda ifodalanadi. Masalan, inglizcha *The classroom laughed* (butun sinf kulib yubordi) jumlasida *classroom* so‘zi o‘zining to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosini emas, o‘sha joydagi o‘quvchilarni nazarda tutgan bo‘lsa, o‘zbek tilida *Butun zal o‘rnidan turdi* iborasida esa *zal* so‘zi mazmunan makon emas balki u yerdagi odamlarga ishora qiladi. Kognitiv nuqtai nazardan qaralganda, o‘quvchi "The classroom" konseptidan "The pupils" konseptiga o‘tadi va yashirin ma’noni tiklaydi. Aynan shu jarayon lingvotejamkorlikning kognitiv mexanizmini tashkil qiladi.

Bizning nazarimizda, metonimiya poetik matnda metaforadan ham kuchliroq iqtisodiy imkoniyatga ega. Chunki u bir konsept ichidagi tayyor assotsiativ bog‘lanishlarga tayanadi va o‘quvchidan kamroq kognitiv kuch talab qiladi.

Antonomaziya ham poetik tejamkorlikni yuzaga keltiruvchi samarali vositalardan biridir. Unda shaxs nomi muayyan sifat yoki xarakter belgisi bilan almashtiriladi. Masalan, zamonaviy ingliz she’riyatidan misol:

"No! I am not Prince Hamlet, nor was meant to be."

(T. S. Eliot, “The Love Song of J. Alfred Prufrock”)

Bu yerda Prince Hamlet antonomaziya sifatida ikkilanish; ortiqcha tafakkur; qat’iy qaror qabul qila olmaslik; ichki konflikt kabi konseptlarni ifodalab she’rxonda quyidagicha kognitiv xarita yaratadi.

HAMLET → DOUBT → HESITATION → INNER CONFLICT

Shoir o‘z qahramonining ruhiy holatini sahifalab tasvirlashdan ko‘ra birgina "Hamlet" nomi orqali murakkab psixologik portret yaratadi.

Demak, konseptual metafora, metonimiya va antonomaziya insonning dunyo haqidagi bilimlarini shakllantirish, ularni lisoniy ifoda etish va kognitiv jarayonlarni modellashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bizning nazarimizda, ushbu mexanizmlar tilni faqat kommunikatsiya vositasidan tashqari tafakkurning in’ikosi hamda bilish vositasi sifatida tushunish imkonini beradi. Shu jihatdan, metafora va metonimiya kognitiv maydon taraqqiyotida inson fikrining asosiy kognitiv mexanizmlari sifatida ham talqin etilishi mumkin. Boshqacha aytganda, kognitiv tuzilmalar vositasida lisoniy mazmun hosil bo‘ladi va uni anglash imkoni paydo bo‘ladi. Biroq ushbu jarayonda hosil bo‘lgan bilimning miqdori va sifati muhim ahamiyatga egadir. Bu borada, L. Vitgenshteyn asarlarida muloqot jarayonida axborotning yangi yoki eski bo‘lishi ishtirokchilar uchun bir xil darajada to‘siq bo‘lishi mumkinligi haqida qayd etilgan[2].

[1] Radden G., Kövecses Z. “Towards a Theory of Metonymy” // *Metonymy in Language and Thought*. – Amsterdam: John Benjamins, 1999. – P. 93.

[2] Wittgenstein L. Philosophical Investigations. Oxford: Blackwell, 1953. – P. 81.

Demak, har bir til foydalanuvchisi o‘z madaniy tajribasi va milliy ongiga asoslangan holda ma’lumotni qabul qiladi va uni qayta tahlil qilib, nutqda voqelantirishga harakat qiladi. Ushbu jarayonda implisit ligvistik vositalarga tayanilgan holda murakkab ma’lumotlar mazmuni sayqallanadi va konseptual tizimlar orqali muloqotdoshlararo ma’lumotlar almashinadi. Masalan, inglizcha *spill the beans* iborasi *donni to‘kmoq* ma’nosini ifodalasa-da, madaniy kontekstda esa *sirni oshkor qilmoq* tushunchasini beradi. Shuningdek, o‘zbekcha *uyga mehmon keldi* iborasi insonga xos fizik voqelikni ifodalaydi, lekin shu bilan birga, o‘zbek madaniyatidagi mehmondostlik qadriyatlariga ham ishora qiladi.

Haqiqatdan ham kognitiv tilshunoslikda til, tafakkur hamda madaniyat uyg‘unligi asosiy o‘rinda turadi. Bu borada o‘zbek tilshunoslari ham muhim nazariy xulosalarga kelishgan. Chunonchi, Sh. Safarov tilni inson ongi hamda tafakkuri bilan uzviy bog‘laydi va til faqat axborot uzatish vositasi emas, balki insonning borliqni anglash mexanizmiligini ta’kidlaydi[3]. N. Mahmudov ta’biricha, har bir til birligi ortida muayyan kognitiv mazmun mavjud bo‘lib, u inson tajribasi va madaniy muhiti bilan shakllanadi[4]. Shuningdek, D. Xudoyberganova tadqiqotlarida konsept tushunchasi markaziy o‘rinni egallab, milliy va madaniy konseptlar til orqali o‘rganilib, tilda aks etgan ma’nolar esa xalqning dunyoqarashi, qadriyatlari va mentalitetini namoyon etishi qayd etiladi[5]. Ushbu yondashuv ham kognitiv tilshunoslikdagi lingvokulturologik yo‘nalishga mos kelishi mumkin.

Yuqorida qayd etilgan tahlillar asosida aytish mumkinki, sohaga oid tadqiqotlar tilni inson ongi, tafakkuri va madaniyati bilan bog‘liq holada kompleks o‘rganish zarurligini yana bir tasdiqlaydi. Bu esa kognitiv tilshunoslikni mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida taraqqiy etishiga zamin yaratadi. Darhaqiqat, tejamlilik tamoyili ayiniqsa badiiy nutq, xususan poetik matnlarda yaqqol namoyon bo‘ladi. Poeziyada so‘z tanlovining aniqligi, ifodaning ixchamligi va manoning yuqori darajada konsentratsiyalangan holda berilishi she’riy nutqning asosiy xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan qaraganda, ham ingliz, ham o‘zbek poeziyasida tejamlilik tamoyili poetik uslubning shakllanishida mukhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Ingliz poeziyasida sheriy vazn, ritm va qofiya talablari til birliklarini ixcham qo‘llashni talab qiladi. Shu sababli ayrim grammatik elementlarning tushirilishi, qisqa va ma’no jihatdan serqirra so‘zlarning tanlanishi poetik nutqning ta‘sirchanligini oshirishga sezilarli ta’sir o‘tkazadi. Bunday holatlarda bir necha so‘z orqali keng ma‘no ifodalanishi poetik tejamkorlikni namoyon etadi. Masalan, ingliz adibi W.H.Audenning quyidagi misralarini tahlilga tortamiz:

Stop all the clocks, cut off the telephone…
Barcha soatlarni o‘chiring, telefonni uzib qo‘ying...
(W. H. Auden, “Funeral Blues”)

Ko‘rinadiki, matnning soddaligi va struktur jihatdan ixchamligi hamda ortiqcha lingvistik bezaklardan holiligi o‘quvchiga asosiy emotsional mazmunni tez va samarali yetkazishni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ushbu holat faqat tilning ratsional va optimal tuzilishini emas, balki emotsional tejamkorlik va kommunikativ samaradorlikni ham

[3] Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик асослари*. – Тошкент: Фан, 2006. – Б. 25–28.
[4] Маҳмудов Н. *Тил ва тафаккур*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – Б. 14–18.
[5] Худойберганова Д. *Лингвокультурология асослари*. – Тошкент: Фан, 2013. – Б. 40–45.

kafolatlaydi. Ya’ni, she’rlarda tejamkor til qo‘llanilishi nafaqat grammatik yoki leksik jihatdan ixchamlikni ta’minlaydi, balki she’riy ritm, hissiyot va ma’noni birlashtirishga xizmat qiladi, murakkab tushunchalarni esa yengil, tushunarli va kuchli ifoda shaklida yetkazishning poetik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shu singari, o‘zbek poeziyasida ham tejamlilik tamoyili muhim badiy vositalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aruz va barmoq vaznida yozilgan sherlarda bo‘g‘inlar soni, ritmik tartib va qofiya talablari shoirdan til birliklarini ehtiyotkorlik bilan tanlashni talab qiladi. Natijada so‘zlarning ixcham shakllari, mano jihatdan boy leksemalar va uslubiy jihatdan kuchli ifoda vositalari qo‘llaniladi. Bu esa sheriy matnda mazmunning zichlashuviga, badiiy obrazlarning ta’sirchanligi va poetik nutqning estetik qimmatiga hizmat qiladi. Masalan:

Sen haqingda yozib to‘rt satr,
Sirdoshiga asta ko‘rsatib…
(Erkin Vohidov, “Sevgi”)

Mazkur satrlarda shoir muhabbat fazilatini ortiqcha ko‘p so‘zlarsiz, faqat muhim leksema va obrazlar bilan ifodalaganligi ravshan bo‘ladi. Natijada she’r qisqa, tushunarli va badiiy ta’sirchan shaklga ega bo‘lib, ushbu uslubiy yutuqni tejamkor tilni poetik estetika bilan uyg‘unlashtirishning amaliy namunasi sifatida e’tirof etish mumkin. Ma’lum bo‘ladiki, tejamkor til nafaqat lisoniy iqtisodiylik, balki poetik ritm, ma’no va emotsiyani birlashtiruvchi badiiy vosita sifatida yuzaga keladi.

Demak, ingliz va o‘zbek poeziyasida tejamlilik tamoyili nafaqat lingvistik tejamkorlikni ta’minlaydi, balki poetik nutqning ritmik uyg‘unligini saqlash, badiy ifodaning kuchini oshirish hamda she’riy matnning uslubiy o‘ziga xosligini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan, poeziyadagi tejamlilik tilning funksional imkoniyatlarini namoyon etuvchi va poetik manoni ixcham shaklda ifodalashga xizmat qiluvchi muhim lingvostilistik omil sifatida baholanadi.

Umuman olganda, tejamkorlik tamoyili tilshunoslikda muhim nazariy tushunchalardan biri hisoblanadi. U til birliklarining ixcham, aniq va samarali qo‘llanishini ta’minlaydi. Ushbu holat fonetik, leksik va sintaktik sathlarda namoyon bo‘lib, nutq jarayonini optimallshtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, kognitiv tilshunoslikning mustaqil lingvistik paradigma sifatida shakllanish jarayoni bilan bog‘liq tadqiqotimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, kognitiv tilshunoslik nafaqat til birliklarini o‘rganish, balki inson ongining kognitiv strukturalarini, bilish jarayonlarini va madaniy tajribani integratsiyalashgan tarzda tushunish imkonini beruvchi mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllangan. Shu bilan birga, kognitiv tilshunoslik fanlararo yondashuvni talab qiladi, chunki til, psixologiya, madaniyat va antropologiya bilan uzviy bog‘liqliklarga ega.

Xulosa qilib shuni takidlash kerakki, til o‘rganilishi faqat kommunikativ vosita sifatida emas, balki inson tafakkurini modellashtiruvchi va bilish jarayonlarini ifodalovchi dinamik tizim sifatida ham baholanadi. Bu esa kognitiv tilshunoslikning ilmiy asoslarini mustahkamlash va uning sohadagi rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Shu jihatdan, kognitiv tilshunoslik ingliz va o‘zbek poeziyasida lingvotejamkorlik hodisasini tadqiq etishda nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki poetik nutqda

ma’no iqtisodiyligi, implisitlik, konseptual siqilish hamda pragmatik ta’sirchanlik kabi hodisalar bevosita insonning kognitiv faoliyati bilan bog‘liq holda yuzaga chiqadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Radden G., Kövecses Z. “Towards a Theory of Metonymy” // *Metonymy in Language and Thought*. – Amsterdam: John Benjamins, 1999.
2. Wittgenstein L. Philosophical Investigations. Oxford: Blackwell, 1953.
3. Сафаров Ш. *Когнитив тилшунослик асослари*. – Тошкент: Фан, 2006.
4. Маҳмудов Н. *Тил ва тафаккур*. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010.
5. Худойберганова Д. *Лингвокультурология асослари*. – Тошкент: Фан, 2013